

## FOYDANI OPTIMAL SOLIQQA TORTISHNING NAZARIY ASOSLARI

Zarif Oripovich Axrorov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali dotsenti

e-mail: [z.akhroroff@gmail.com](mailto:z.akhroroff@gmail.com)

**Annotatsiya.** Maqolada foyda iqtisodiyotni tartibga solishdagi muhim kategoriya sifatida optimal soliqqa tortishda muhim rol o'ynashi ta'kidlangan. Ishda optimal soliqqa tortishning standart nazariyasi, optimal ishlab chiqarish nazariyalarida soliqqa tortish tizimi, korporativ foyda solig'i tizimida kompaniyalarda haddan ziyod ortiqcha qarzli moliyalashtirishni cheklash va foizlar bo'yicha soliq chegirmalarining salbiy oqibatlarini kamaytirish bo'yicha xulosalar shakllantirilgan.

**Kalit so'zlar:** foyda, optimal soliqqa tortish, foyni soliqqa tortish, foyda solig'i, korporativ soliq.

**Аннотация.** В статье подчеркивается, что прибыль играет важную роль в оптимальном налогообложении как важной категории регулирования экономики. В работе сформулированы выводы о стандартной теории оптимального налогообложения, системе налогообложения в теориях оптимального производства, ограничении избыточного заемного финансирования в компаниях в системе налога на прибыль организаций, снижении негативных последствий налога на проценты. вычеты.

**Ключевые слова:** прибыль, оптимальное налогообложение, налогообложение прибыли, налог на прибыль, корпоративный налог.

**Abstract.** The article emphasizes that profit plays an important role in optimal taxation as an important category of economic regulation. The paper formulates conclusions about the standard theory of optimal taxation, the taxation system in theories of optimal production, limiting excess debt financing in companies in the corporate income tax system, reducing the negative consequences of interest tax. deductions.

**Keywords:** profit, optimal taxation, profit taxation, income tax, corporate tax.

## 1. Kirish

Jahondagi rivojlangan mamlakatlar tajribasiga ko'ra, iqtisodiyotni barqarorligini ta'minlash, biznes va investitsion faollikni oshirishda korporativ soliq tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda xo'jalik subyektlari foydasini soliqqa tortishni optimallashtirishda soliqqa tortish va soliq vositasida tartibga solishni muvofiqlashtirishni talab qiladi.

Jahon amaliyotida korporativ foyda solig'ini optimallashtirish va soliqni ta'sirini empirik baholash borasida ko'plab ilmiy izlanishlar amalga oshirib kelinmoqda. Mazkur ilmiy tadqiqot ishlarida, foyda solig'ining soliq to'lovchilar hulq-atvoriga ta'sirini

baholash, foyda solig'ining biznes va investitsion faollik va iqtisodiy o'sishga ta'sirini aniqlash, korporativ foyda solig'i samarali stavkasini o'rnatish, transmilliy kompaniyalar foydasiga soliq solish bilan bog'liq muammolar to'liq ijobiy yechimini topmaganligi sababli mazkur yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

## 2. Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Optimal soliqqa tortishning standart nazariyasi soliq tizimi bir qator cheklovlarni hisobga olgan holda ijtimoiy ta'minot funksiyasini maksimal darajada oshirish uchun tanlanishi kerakligini ta'kidlaydi [1].

Standart optimal soliqqa tortish nazariyasiga ko'ra, oraliq tovar va xizmatlar soliqqa tortilmaydi, chunki ishlab chiqarish jarayonlariga bog'liq bo'lgan nomutanosibliklar yakuniy natijalarga soliq solishga nisbatan ko'proq qimmatga tushishi mumkin. Optimal soliqqa oid adabiyotlarda odatda ijtimoiy rejalashtiruvchiga yordamchi vosita sifatida qaraladi, ya'ni ijtimoiy farovonlik funksiyasi jamiyatdagi individlarning nafililigiga asoslanadi.

Umuman olganda, optimal foyda solig'i nazariyasi borasida Ramsey, Diamond va Mirrleeslar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar optimal soliqqa tortish bo'yicha ilmiy adabiyotlarning asosi sifatida qaraladi. Ramsey iste'mol va jamg'armani ikkita turli tovarlar sifatida ko'rib chiqadi va kapitaldan olinadigan foydaga ish haqidan daromad solig'iga nisbatan ancha past stavkada soliq solinishi lozimligini ta'kidlagan [2]. Diamond va Mirrleeslarning ta'kidlashicha, rejali iqtisodiyot sharoitda optimal ishlab chiqarish nazariyalari odatda soliq tizimi hukumatga mulkni istalgan qayta taqsimlashga erishish imkonini beradi deb taxmin qilinadi. Boshqa tomondan, davlat investitsiyalari me'zonlari bo'yicha so'nggi ilmiy munozaralardan iqtisodiyotni nazorat qilishning qo'shimcha metodlari sifatida soliqqa tortishni e'tiborsiz qoldirgan. To'liq optimallik uchun zarur bo'lgan bir martalik transfertlarni bugungi kunda o'tkazish mumkin bo'lmasa-da, tovarlar va daromadga soliqlardan farovonlikni oshirish uchun foydalanish mumkin. Shu sababdan, ijtimoiy farovonlikni maksimal darajada oshirishda soliqlar va ijtimoiy ishlab chiqarish nazorat o'zgaruvchilari sifatida ko'rib chiqilgan [3].

Diamond va Mirrleeslarning "Optimal Taxation and Public Production I: Production Efficiency" ilmiy ishlarida ijtimoiy farovonlik funksiyasini maksimal darajada oshirish uchun soliq va davlat ishlab chiqarishidan foydalanish masalasi tadqiq qilingan bo'lib, ikkita asosiy natijalarni ko'rsatib o'tish mumkin: 1) soliqlar optimal darajada o'rnatilgan bo'lsa, har xil sharoitlarda jami ishlab chiqarish samaradorligining maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi; 2) ushbu optimal soliq tizimini tadqiq qilinishi. Diamond va Mirrleeslarning fikricha, har bir uy xo'jaligi daromadining ijtimoiy marjinal nafililigi soliqqa tortishdan mustaqil bo'lsa-da, odatda soliqqa tortish maqsadga muvofiqdir. Agar tovar xaridorlari orasida daromadning ijtimoiy chegaraviy nafililigi nisbatan past bo'lgan uy xo'jaliklari ustunlik qilsa, u holda bu tovar nisbatan yuqori soliqqa tortilishi kerak. Garchi bunday soliqqa tortish daromadning ijtimoiy marjinal nafililigini yaqinlashtirishga moyil bo'lmasa-da, u umumiy farovonlikni oshiradi. Umuman olganda, soliqqa tortish daromadning ijtimoiy marjinal nafililigiga ta'sir qiladi [4].

## 3. Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida foydani optimal soliqqa tortish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'rganildi. Maqolani shakllantirish jarayonida kuzatish va tanlab olish, ilmiy-nazariy, empirik kuzatuv usullardan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqotda qo'llanilgan xorijiy va milliy rasmiy manbalardan foydalanilgani bilan izohlanadi.

#### 4. Tahlil va natijalar

Optimal soliq tizimining strukturasi uzoq vaqtdan beri nazariyotchi iqtisodchi olimlar va amaliyotdagi iqtisodchilarni diqqat markazida bo'lib kelayotgan mavzudir. So'nggi o'n yilliklarda rivojlangan optimal soliq nazariyasi tomonidan taklif qilingan sakkizta umumiy xulosalarni keltirib o'tish mumkin:

- 1) optimal marjinal soliq stavkalari grafigi qobiliyatning taqsimlanishiga bog'liq;
- 2) yuqori daromadlarda optimal marjinal soliq rejimi pasayishi mumkin;
- 3) universal bir martalik transfertlar bilan yagona soliq optimal soliqqa yaqin bo'lishi mumkin;
- 4) qayta taqsimlashning optimal darajasi daromad tengsizligi oshishi bilan ortadi;
- 5) soliqlar shaxsiy sifatlar va daromadlarga bog'liq bo'lishi kerak;
- 6) faqat yakuniy mahsulotlar soliqqa tortilishi kerak va umuman olganda, ular yagona soliqqa tortilishi zarur;
- 7) kapitaldan daromad soliqdan hech bo'lmaganda avvaldan ozod bo'lishi kerak;
- 8) stoxastik, dinamik iqtisodiyotlarda optimal soliq siyosati murakkablikni talab qiladi.

Diamond va Mirrleeslar tomonidan optimal soliq strukturasi o'rganishda muayyan naflilik funksiyalar bilan nazarda tutilgan soliq stavkalari qisqacha ko'rib chiqilgan. Shu bilan birga, tadqiqotda soliq ma'murchiligi xarajatlari va soliqdan bo'yin tovlashlar nazarda tutilmagan hamda xususiy ishlab chiqarishda mashstab va narxlarni belgilashdan va foydani maksimal darajada oshirish uchun doimiy daromad olishni taxmin qilingan. Ushbu taxminlarning buzilishi bilan bog'liq sof daromadlar (yoki zararlar) xususiy ishlab chiqarish qarorlari uy xo'jaliklarining daromadlariga ta'sir qilish orqali ijtimoiy farovonlikka bevosita ta'sir qilishini anglatadi. Bunday holatda ehtimol, soliq siyosati instrumentlari to'plamiga foyda solig'ini qo'shish maqsadga muvofiqligi ko'rsatib o'tilgan.

Shunday qilib, optimal ishlab chiqarish nazariyalarida soliqqa tortish tizimi hukumatga daromadlarni samarali qayta taqsimlash imkoniyatini berishi mumkin deb taxmin qilinadi. Tenglik qadrlanadigan har qanday iqtisodiy tizimda progressiv deb taxmin qilish mumkin foyda solig'i fiskal siyosatning muhim instrumentiga aylanadi. Qayta taqsimlovchi progressiv soliqqa tortish odatda soliq to'lovchining daromadi bilan bog'liq [5]. Mirrleesning ta'kidlashiga ko'ra, daromad solig'ini optimal shkalasining shakli daromadning taqsimlanishi va naflilikni ta'minlashda samaralidir va real iqtisodiyotda amalga oshirish murakkab masaladir. Taxminan chiziqli daromad solig'i shkalasi barcha ma'muriy imtiyozlarga ega bo'lishi kerak (agar yuqori malakali ishchi kuchi taklifi naflilik funksiya taklif qilgandan ko'ra ko'proq egiluvchan bo'lmasa) va ayniqsa (optimal!), salbiy daromad solig'i bo'yicha takliflar kuchli qo'llab-quvvatlanadi [6]. Shuning uchun, daromad solig'i tengsizlikni kamaytirish uchun ilgari ko'rib chiqilgandan ko'ra kamroq samarali instrumentga aylandi. Zamonaviy optimal soliqqa tortish nazariyasida ko'pincha e'tibordan chetda qoladigan boshqa masalalar, masalan, shaxsning soliq majburiyati

shaxsning davlatdan oladigan imtiyozlari bilan bog'liq bo'lishi kerakligi haqidagi imtiyozlar prinsipi va daromadlar darajasi teng bo'lgan shaxslar bir xil soliq yuklariga duch kelishi kerakligi haqidagi gorizontol tenglik prinsiplari ham muhim ahamiyatga egadir.

Shubhasiz, korporativ foyda solig'i muhim va iqtisodiyotning ko'plab tarmoqlariga ta'sir ko'rsatadigan soliq sifatida qisman muvozanat sharoitida emas, balki umumiy muvozanat sharoitida tahlil qilinishi kerak. Iqtisodchi olimlar Heckscher, Ohlin, Stolper, Samuelson, Metzler va Meadelar tomonidan xalqaro savdo yoki konkret savdo siyosatining ishlab chiqarish omillarining nisbiy bahosiga va daromad taqsimotiga ta'sirini o'rganib chiqilgan bo'lib, Harberger tomonidan korporativ foyda solig'ining ushbu o'zgaruvchilar ta'siri baholangan hamda uning modelida iqtisodiyot ikkita sektorga ajratilgan: korporativ va korporativ bo'lmagan, ularning har biri ikkita ishlab chiqarish omillari mehnat va kapitaldan (K, L) foydalanilgan [7]. Korporativ foyda solig'i korporativ bo'lmagan sektorda emas, balki korporativ sektorda kapitaldan olinadigan daromadga ta'sir qiluvchi soliq sifatida qaraladi va ikkala tarmoq ham raqobatbardoshdir, ishlab chiqarish har bir tartibga solinadigan bir xil birinchi darajali ishlab chiqarish funksiyasi (masshtabning doimiy daromadini ifodalaydi) bilan amalga oshirilishi taxmin qilingan. Kapital bozori soliqlar va risk uchun mukofotlar chegirilgan keyingi foyda normasini muvozonatlashishga xarakat qilinayotganda va hozircha korporativ foyda solig'ini joriy etishning o'zi faoliyatning har xil turlari bilan bog'liq bo'lgan risk mukofotlari (tarkibi)ga sezilarli ta'sir ko'rsatmasa, uzoq muddatda korporativ foyda solig'ini tovarlar narxiga kiritilishi muqarrardir. Ya'ni, iqtisodiyotning ikkita tarmog'i korporativ va nokorporativ sohalar mahsulot biriligi ishlab chiqarish uchun kapital va mehnatning bir kombinatsiyasidan foydalangan holda korporativ sektordagi mahsulotning muvozonat narxi to'langan korporativ solig'i summasi hisobiga nokorporativ mahsulotning muvozonat narxidan yuqori bo'ladi. Kapitalga soliq solinishi natijasida, milliy daromaddagi umumiy kapitalning ulushi hukumatning soliq ko'rinishidagi olgan summaga teng miqdorda yo'qotiladi va mehnatning ulushi esa o'zgarmaydi. Natijada soliqning joriy qilinishi tarmoqlar o'rtasida kapital taqsimoti o'zgaradi. Kapitaldan olinadigan foyda solig'i stavkasi har bir sohada bir xil bo'lgan hollar bundan mustasno, nisbiy narxlar va iste'molchilar o'rtasida daromad o'tkazish oddiyroq holat uchun yuqorida tavsiflangan umumiy ta'sirga ega bo'ladi [7]. Agar kapital daromadiga soliq stavkasi har bir sohada bir xil bo'lmasa, nisbiy narxlar va iste'molchilar o'rtasida daromad o'tkazish yuqorida tavsiflangan oddiyroq holatda bo'lgani kabi ta'sir qiladi. Biroq, avvalgidek, nisbiy narxlarning o'zgarishi natijasida iste'molchilarning erishgan yutuqlari, birinchi navbatda, yutqazgan iste'molchilarning yo'qotishlari bilan qoplanadi.

Shunday qilib, agar biz bu to'lovni odamlarning iste'molchi sifatidagi roli nuqtai nazaridan ta'sirlarning bekor qilinishi deb olsak, kapital soliqning to'liq yukini ko'taradi, deb aytishimiz mumkin [7]. Fikrimizcha, iqtisodiyotning turli sohalarida turli stavkada korporativ foyda solig'ining qo'llanishi tarmoqlardagi muvozonat narxlarining turlicha bo'lishiga olib kelishi bilan bir qatorda, kapital uchun to'lanadigan haqni (masalan, moliyaviy sektorda kreditlar foizni o'sishiga) oshib ketishiga sabab bo'lishi mumkin.

Zamonaviy soliq tizimlarida daromad solig'ining muhim rol o'ynashi bu "ideal soliq"ning soliqqa tortishning eski va samarasizroq hamda unchalik mukammal


bo'lmagan soliq shakllari ustidan g'alaba qozonganidan dalolat beradi. Daromad solig'i tizimi yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarda davlat budjetiga daromad solig'i tushumlarini yanada oshirish korporatsiyalar foydasidan olinadigan korporativ foyda solig'ini oshirish orqali (masalan, Germaniya, Buyuk Britaniya, Italiya) amalga oshirildi. Korporativ foyda solig'i monopoliyalarni nazorat qilish va kutilmagan foydani soliqqa tortish instrumenti sifatida tavsiya etilgan. Agar korporativ foyda solig'i investitsiya qilingan kapitalning rentabelligi bo'yicha progressiv bo'lsa, ular nomukammal raqobatdan kelib chiqadigan foydani kamida bir qismini o'zlashtiradi [8].

Korporativ foyda solig'i biznes aylanishiga qarab sezilarli darajada o'zgarib turadi, xarajat omili solig'i esa barqarorroq hisoblanadi. Bu birinchi soliqning federal soliq sifatida muvofiqligini tasdiqlaydi, chunki federal hukumat uchun depressiya davridagi yuzaga keladigan budjet difetsitlarni qoplash shtat va mahalliy hukumatlarga qaraganda osonroq. Xulosa qilishimiz mumkinki, korporativ foyda solig'i biznesni soliqqa tortish tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqa tomondan, korporativ foyda solig'i dividendlar taqsimotini cheklaydi yoki aks holda aksiyalarning o'z kapitalini pasaytiradi. Aksariyat aksiyalar badavlat tabaqa vakillariga tegishli bo'lganligi sababli, bu soliq, ochiqroq qilib aytganda, nafaqat imtiyoz tamoyiliga mos keladi, balki boshqa biznes soliqlariga qaraganda yaxshiroq to'lash qobiliyatini qondiradi deb taxmin qilish mumkin. Umuman olganda, progressiv korporativ foyda solig'i, aholining badavlat qatlami tomonidan yirik korporatsiyalarga sarmoya kiritishga moyilligini ko'rsatsagina, optimal foyda solig'i sifatida dalil qilib keltirish mumkin. Biroq, har ikki tomondan, bu "ideal" soliq emas va faqat bir tomondan biznes xarajatlariga qo'shiladigan soliqlarga chegirma mavjudligi va boshqa tomondan esa daromadni samarali taqsimlashda shaxsiy daromad solig'iga qo'shimcha instrument hisoblanadi.

Korporativ foyda solig'i biznesni moliyalashtirish strukturasi sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Korporativ foyda solig'i tizimida qarzlarning foiz to'lovlari xarajat sifatida olib tashlanishi mumkinligi sababli, korporatsiyalar faoliyatini aksiyalarni chiqarish orqali ulushli moliyalashtirish emas, balki obligatsiyalar orqali qarzli moliyalashtirish afzal hisoblanadi. Natijada bu korporativ soliq tizimidagi ulushli va qarzli moliyalashtirishdagi soliq diskriminatsiyasiga olib keladi. Ayrim xorijiy davlatlar obligatsiyalar va aksiyadorlik jamiyatlariga teng yuk yuklash uchun korporativ soliqqa tortishning asosi sifatida foizdan avvalgi daromaddan foydalanadilar. Korporativ foyda soliq tizimi orqali kelib chiqadigan korporativ qarzga moyillik, kompaniyalar uchun haddan ziyod qarz mablag'lari jalb qilinishiga olib keladi va moliyaviy inqiroz davrida ularning moliyaviy barqarorligi keskin pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, iqtisodchi olimlarning ta'kidlashicha, xususiy kapitalga nisbatan qarzga moyillik iqtisodiyot tarmoqlarini, ayniqsa, moliyaviy sektorning beqarorligiga olib keladi [9-10].

Darhaqiqat, korporativ foyda solig'i tizimida kompaniyalarda haddan ziyod ortiqcha qarzli moliyalashtirishni cheklash va foizlar bo'yicha soliq chegirmalarining salbiy oqibatlarini kamaytirish maqsadida, bir necha mamlakatlarda "foizlar bo'yicha chegirmalarni cheklash qoidalar" yoki "kapitallashtirishning yetishmasligiga qarshi qoidalar" ishlab chiqilgan. Bu qoidalar korporativ foydani soliqqa tortish maqsadlari uchun korporativ qarzlar bo'yicha to'lagan foizlarning qancha qismi chegirib tashlanishini belgilab beradi. Soliq qonunchiligida, soliq solinadigan foydani aniqlashda, xarajatlar

tarkibiga kiritilishi lozim bo'lgan foiz summalari bo'yicha hisoblangan stavka miqdorini to'g'ridan-to'g'ri cheklash mumkin. Bunda ikkita yondashuv mavjud. Birinchisida, qonun hujjatlarida mumkin bo'lgan maksimal foiz stavkasi belgilanishi nazarda tutiladi. Ikkinchisida esa, soliq qonunchiligiga muvofiq, har bir operatsiyaga qo'llanilgan foiz stavkasini solishtirish mumkin bo'lgan shartlardan kelib chiqadi [11]. Bundan tashqari, qarz kapitalining xususiy kapitalga nisbati ma'lum bir darajadan oshib ketganda foizlar bo'yicha soliq chegirmalariga cheklovlar mavjud. Masalan, Yaponiyada umumiy qoidaga ko'ra, tegishli qarz miqdorining korporatsiya xususiy kapitalidagi ulushi uch baravardan ortib ketganda, xorijiy sho'ba korxonasiga qarz majburiyatlari bo'yicha foizlar korporatsiya foyda solig'ini hisoblashda chegirib tashlanmaydi [12]. Niderlandiyada foizli xarajatlar agarda foizli daromaddan oshib ketgan taqdirda, ularga nisbatan cheklovlar nazarda tutilgan. Mazkur qoida tegishli foiz xarajatlariga soliq chegirmalarining cheklovi orqali qarzli moliyalashtirishning soliq afzalliklarini kamaytirishga qaratilgan. Shunday qilib, kapitallashuvning yetishmasligiga qarshi qoidalar qarz kapitalining xususiy kapitalga belgilangan nisbatdan oshib ketganda, soliq bazasidan foizlar bo'yicha soliq chegirmalarini cheklaydi. Keng ma'noda, davlatlarning kapitallashuvning yetishmasligiga qarshi qoidalarga yondashuvidan kelib chiqib, uch toifaga bo'linadi: har qanday kapitallashuvning yetishmasligiga qarshi qoidalar amal qilmaydigan mamlakatlar, maxsus qoidalar qo'llanilmaydigan mamlakatlar; o'ziga xos kapitallashuvning yetishmasligiga qarshi qoidalar mavjud bo'lgan mamlakatlar. Ilmiy adabiyotlarda korporativ foydani soliqqa tortishdagi korxonalarining o'z mablag'lari va qarz mablag'lari orqali moliyalashtirishdagi soliq diskriminatsiyasini kamaytirish maqsadida, ikkita yondashuv biznesning umumiy foydasiga soliq (Comprehensive Business Income Tax – CBIT) va korporativ xususiy kapitalga soliq chegirmasi (Allowance for Corporate Equity – ACE) yechim sifatida taklif etilgan (1-rasm). Korporativ xususiy kapitalga soliq chegirmasi (Allowance for Corporate Equity – ACE) kapital strukturasi ta'sir etib, defolt riskini kamaytirish orqali tizimli riskni pasaytirishi mumkin.



**1-rasm. Korporativ foyda solig'i tizimidagi ortiqcha qarzli moliyalashtirish bo'yicha soliq diskriminatsiyasini kamaytirishdagi yondashuvlar [13]**

Korporativ xususiy kapitalga soliq chegirmasi (ACE)ga xos bo'lgan bir qator xususiyatlarni keltirib o'tish mumkin: birinchidan, qarzli va ulushli moliyalashtirish o'rtasida betaraflikning oldini oladi hamda kapitallashuvning yetishmasligiga qarshi qoidalarni bekor qiladi; ikkinchidan, marjinal investitsiyalar yechimiga nisbatan neytralligidir, ya'ni foizlar va kapitalga normal miqdordagi daromadni qaytarilishi bo'yicha chegirmaning mavjudligi; uchinchidan, iqtisodiy amortizatsiya bilan soliq solishdagi amortizatsiya orasidagi farqlar sababli, kelib chiqadigan investitsion nomutanosibliklarni bartaraf etadi. Jumladan, soliqqa tortish maqsadlarida tezashtirilgan amortizatsiya summasining oshirilishi soliq hisob-kitoblarida aktivlarning balans qiymati pasayishiga olib keladi va kelgusi yilda kapital uchun to'lovlarni kamaytiradi [11]. Korporativ foyda solig'i tizimidagi ACE kompaniyalarga kapitali bo'yicha shartli foiz stavkalarida soliq chegirmalarini amalga oshirish imkoniyatini beradi. Ideal holatda bu qoidalar xususiy kapital va qarzli moliyalashtirish o'rtasidagi tanlovda kompaniyalarning befarq bo'lishiga olib kelishi lozim. Avstriya, Belgiya, Braziliya, Xorvatiya, Italiya kabi bir qator mamlakatlarda ACE qoidalari joriy qilingan.

### 5. Xulosa va takliflar

Standart optimal soliqqa tortish nazariyasiga ko'ra, oraliq tovar va xizmatlar soliqqa tortilmaydi, chunki ishlab chiqarish jarayonlariga bog'liq bo'lgan nomutanosibliklar yakuniy natijalarga soliq solishga nisbatan ko'proq qimmatga tushishi mumkin. Optimal foyda solig'i nazariyasi Ramsey, Diamond, va Mirrleeslar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar optimal soliqqa tortish bo'yicha ilmiy adabiyotlarning asosi sifatida qaraladi.

Optimal ishlab chiqarish nazariyalarida soliqqa tortish tizimi hukumatga daromadlarni samarali qayta taqsimlash imkoniyatini berishi mumkinligi taxmin qilinadi. Tenglik qadrlanadigan har qanday iqtisodiy tizimda progressiv deb taxmin qilish mumkin foyda solig'i fiskal siyosatning muhim instrumentiga aylanadi. Qayta taqsimlovchi progressiv soliqqa tortish odatda soliq to'lovchining daromadi bilan bog'liq.

Xulosa qilib aytganda, korporativ foyda solig'ini optimallashtirishga nafaqat "fiskal" davlat budjeti tushumlarini oshirish nuqtai-nazaridan, balki shu bilan bir qatorda iqtisodiyot tarmoqlarining barqarorligini oshirish va yuqori darajadagi risklar bog'liq faoliyatini tartibga solish instrumenti sifatida qarash lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mankiw, N. Gregory, Matthew Charles Weinzierl, and Danny Ferris Yagan. 2009. Optimal taxation in theory and practice. *Journal of Economic Perspectives* 23(4). <https://dash.harvard.edu/bitstream/handle>.
2. Ramsey, F.P. (1927). «A contribution to the theory of Taxation», *E Economic Journal*, vol. 37(145), pp.47-61. <https://eml.berkeley.edu/~saez/course131/Ramsey27.pdf>.
3. Diamond P.A., Mirrlees J.A., 1971. Optimal Taxation and Public Production I: Production Efficiency. *American Economic Review* Vol. 61, No. 1, pp. 8-27. <http://hassler-j.iies.su.se/Courses/DynPubFin>.

4. Diamond P.A., Mirrlees J.A. 1971. Optimal Taxation and Public Production II: Tax Rules. *American Economic Review*, 61. pp. 261-278. <https://assets.aeaweb.org/asset-server/files/9447.pdf>
5. Mirrlees J.A. 1971. An Exploration in the Theory of Optimum Income Taxation. *Review of Economic Studies*, Oxford University Press, vol. 38(2), pages 175-208. <http://hassler-j.iies.su.se/COURSES/DynPubFin/Papers>.
6. Blum, W. J. and Kalven, H. Jr. 1953. *The Uneasy Case for Progressive Taxation* (University of Chicago Press, 1953). [https://chicagounbound.uchicago.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=13444&context=journal\\_articles](https://chicagounbound.uchicago.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=13444&context=journal_articles).
7. Harberger C. 1962. The Incidence of the Corporation Income Tax. *The Journal of Political Economy*, Vol.70, No. 3 (Jun., 1962), pp.215. <https://www.amherst.edu/system>.
8. Gerhardt Colm. Conflicting theories of corporate income taxation. <https://scholarship.law.duke.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=2016&context=lcp>.
9. Admati, A., P. DeMarzo, M. Hellwig and P. Pfleiderer. 2013. Fallacies, Irrelevant Facts, and Myths in the Discussion of Capital Regulation: Why Bank Equity is Not Socially Expensive. Working paper, Stanford University.
10. de Mooij, R., M. Keen and M. Orihara. 2013. Taxation, Bank Leverage, and Financial Crises. Working paper, International Monetary Fund.
11. Абдуллаев З.А. Тижорат банклари фаолиятини солиққа тортишни такомиллаштириш //Монография. – Т.: Молия, 2020. 26 бет.
12. Langedijk Sven & Nicodème Gaëtan & Pagano Andrea & Rossi Alessandro (2015). "Debt Bias in Corporate Income Taxation and the Costs of Banking Crises," CEPR Discussion Papers 10616, C.E.P.R. Discussion Papers.
13. PWC. 2006. Tax Reform on Thin Capitalization Rule. *Gets Vol. 30.P.1.* асосида тузилган.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

